



## **“Internetga ulaning va abonent qurilmasiga ega bo‘ling” aksiyasini o‘tkazish shartlari**

1. Aksiyani o‘tkazish muddati - 2020 yil 7 fevraldan 2021 yil 31 dekabrga qadar.
2. Aksiyada tarmoq qamrovi zonasida joylashgan, texnik imkoniyati mavjud barcha jismoniy va yuridik shaxslar ishtirok etishi mumkin.
3. Aksiya jismoniy va yuridik shaxslarga Internet xizmatiga yangi ulanganda taqdim etiladi.
4. Joriy abonentlar faqat ulanish texnologiyasini boshqa ulanish texnologiyasiga o‘zgartirgandagina Aksiyada ishtirok etishlari mumkin\*\*.
5. Aksiyada ishtirok etish shartlari:
  - 5.1. “O‘zbektelekom” AKning Internet va telefoniya tarmog‘iga ulanish (Abonent yashash manzili bo‘yicha qayd etilgan telefon aloqasi mavjud bo‘lmagan taqdirda) va Kompaniya bilan 3- son Ilovaga muvofiq telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatish davrida saqlash uchun abonent qurilmasini taqdim etish to‘g‘risida Shartnoma imzolash.
  - 5.2 Abonent to‘lovi 50 000 so‘m va undan yuqori bo‘lgan tarif rejalar tanlovi.
  - 5.3 Abonent ro‘yxatdan o‘tish uchun (jismoniy shaxslar uchun - 30 000 so‘m, yuridik shaxslar uchun - 80 000 so‘m) hamda tanlagan tarif rejasi uchun abonent to‘lovini amalga oshiradi.
  - 5.4 Abonent 12 oydan kam muddatda tarif rejani abonent to‘lovi kam bo‘lgan (5.2- band) tarif rejaga almashtirmasligi lozim.
  - 5.5 Aksiyada Abonent ishtirok etish davomida Abonentning shaxsiy hisobidan abonent to‘lovi yechib olinishi har oy amalga oshirilishi lozim. Shu bilan birga, kelgusi hisob-kitob davri uchun (joriy hisob-kitob davri tugagunga qadar) abonent to‘loviga oid to‘lovlarni o‘z vaqtida to‘lash majburiy hisoblanadi.
  - 5.6 Abonent abonent qurilmasini soz holatda saqlashi lozim\*\*\*.
6. 5.1, 5.2 va 5.3-bandlarni ijrosi bajarilganda Abonentga abonent qurilmasi telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatish davrida mas’uliyat bilan saqlash uchun taqdim etiladi.
7. Abonent tomonidan Abonentga telekommunikatsiya xizmatlarini taqdim etish paytida saqlash uchun telekommunikatsiya qurilmalarini taqdim etish to‘g‘risidagi Shartnoma asosida bepul taqdim etiladi va Abonent Aksiyaning barcha shartlariga rozilik bildiradi.

8. Abonentga taqdim etiladigan abonent qurilmasi “O‘zbektelekom” AKga tegishli bo‘lib, shuningdek Aksiya shartlarini buzilish holalari hamda telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatish shartnomasi shartlari buzilgan hollarda Kompaniya o‘rnatilgan tartibda Abonent bilan shartnomani bekor qilish huquqiga ega. Mazkur shartnoma bekor qilinganda, Abonent taqdim etilgan Abonent qurilmasini to‘liq va soz holda qaytarishi shart. Agarda jamlama to‘liq bo‘lmasa (quti, modem, quvvatlash bloki, shnur, splitter, qurilmani foydalanish yo‘riqnomasi, ATB abonent rozetkasi va hokazolar) yoki shikast yetkazilgan bo‘lsa, Abonent taqdim etilgan qurilmaning to‘liq qiymatini o‘rnatilgan tartibda to‘lab berishga majbur.

9. Ushbu Aksiya doirasida taqdim etiladigan abonent qurilmalari soni cheklangan.

10. Kelgusida abonent qurilmasini qayta sotish uchun ushbu Aksiya doirasida tijorat maqsadlarida ishtirok etishga yo‘l qo‘yilmaydi.

11. Aksiyada avval kompaniyaning shunga o‘xshash aksiyalarida ishtirok etgan va Aksiyaning barcha shartlarini bajarmagan abonentlarning Aksiyada ishtirok etgan abonent qurilmasining narxlari to‘liq qoplanmaguncha, shuningdek aksiya doirasida avval abonent qurilmalari bilan ta‘minlangan ushbu abonentlar bilan bitta manzilda istiqomat qiluvchi shaxslarning ishtirok etishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

12. Taqdim etilgan abonent qurilmasida ishlab chiqarishdagi nosozlik aniqlangan hollarda, Abonent kafolat muddati (1 oy) davomida Kompaniyadan tashqi ta‘sirlar asosida shikast yetmagan belgilari yo‘qligi va fabrika plombasi saqlanganligi sharti bilan xuddi shu savdo belgisidagi (rusum, artikula) boshqa qurilmaga almashtirib berishni talab etish huquqiga ega. Qurilmada ishlab chiqarishdagi nosozlik aniqlanganda Kompaniyaning texnik mutaxassisi hamda Abonent yoki uning vakili (oila a‘zosi) ishtirokida tegishli dalolatnoma tuziladi \*\*\*\*

13. Qurilmani almashtirish faqat tashqi omillardan mustaqil ravishda, abonent qurilmasida shikastlanish faktlari mavjud bo‘lgan hollarda, texnik ekspertizaning tasdiqlovchi hujjati asosida amalga oshiriladi. Texnik ekspertiza va texnik ekspertiza xarajatlari Abonent hisobidan qoplanadi. Boshqa barcha holatlarda, qurilma almashtirilmaydi, shu bilan birga, Abonentning barcha majburiyatlari o‘zgarishsiz qoladi.

14. Aksiyada ishtirok etish orqali Abonent Kompaniyaning rasmiy saytida joylashtirilgan aksiya shartlari bilan tanishganini va roziligini tasdiqlaydi.

15. Kompaniya bir tomonlama tartibda Aksiya shartlarini o‘zgartirish huquqiga ega, tegishli xabarnoma Kompaniyaning rasmiy saytida joylashtiriladi.

\* GPON texnologiyasi bo‘yicha abonent qurilmasi o‘zida to‘liq jamlamasida ONT-modem, shuningdek ATB abonent rozetkasini mujassam etadi;

\*\* Xizmatga ulanish va texnologiyani boshqa texnologiyasiga o‘zgartirish faqat texnik imkoniyat mavjud bo‘lgandagina amalga oshiriladi;

\*\*\* Ishlab chiqaruvchining Yo‘riqnomasida ko‘rsatilgan foydalanish shartlariga muvofiq;

\*\*\* Texnikmutaxassisni 1084 qisqa raqami orqali chaqirish mumkin.